

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rincbosari:	Nodir Jo'raqo'ziyev
Mas'ul kotib:	Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvı (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyor Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy turmani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoly-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyoziyeva, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Нозлия Нормуродова

Теоретические вопросы антропоцентризма в контексте развития современной лингвистической науки.....6

Muqaddas Abdurahmanova

O'zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarni lingvokognitiv aspektida tadqiq etish asoslari.....26

Elçin İbrahimov

Günümüzde Türk Devlet ve Topluluklarında Ortak İletişim Dili Sorunu...44

Eldar Asanov

Turk-run bitiklari ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo turklarida ijtimoiy status, ijtimoiy notenglik va xotira kategoriylarini tushunish manbasi sifatida.....57

Hasamuddin Hamdard

Afg'oniston o'zbek tili va adabiyotiga matbuotning ta'siri.....77

Adabiyotshunoslik

Oybarchin Abdulhakimova

Abdulla Oripov lirik konsepsiyasining adabiy-estetik muhit bilan mushtarakligi.....85

Mahira Hajiyeva

Ufq tushunchasi hamda adabiyotda utopik va distopiya tushunchalarining kesishishi.....100

Sotsiologiya. Psixologiya

Sabohat Kalanova

O'zgaruvchan jamiyatda avlodlar almashinuvi jarayonlarining differensiatsiyasi.....112

Tarix. Manbashunoslik

Azizullah Aral

Qadim Xurosondag'i Navoiy obidalarining bugungi ko'rinishi.....124

CONTENT

Linguistics

Nozliya Normurodova	
Theoretical Issues of Anthropocentrism in the Context of the Development of Modern Linguistic Science.....	6
Muqaddas Abdurahmanova	
Basics of Research of Lexical Homonyms in the Uzbek and Turkish Languages in the Linguocognitive Aspect.....	26
Elchin Ibrahimov	
The Problem of Common Communication Language in Turkish State and Community Today.....	44
Eldar Asanov	
Old Turkic Inscriptions as a Source for Understanding the Categories of Social Status, Social Inequality, and Memory among Early Medieval Turks in Central Asia.....	69
Hasamuddin Hamdard	
The influence of the Press on the Uzbek Language and Literature of Afghanistan.....	77

Literature

Oybarchin Abdulhakimova	
The commonality of Abdulla Oripov's lyrical Conception with the literary-aesthetic environment.....	87
Mahira Hajiyeva	
Concept of Horizon and the Intersection of Utopian and Dystopian Visions in Literature.....	100

Sociology. Psychology

Sabohat Kalanova	
Differentiation of Processes of Generational Exchange in a Changing Society.....	112

History. Source studies

Azizullah Aral	
Today's View of Navoi Monuments in Ancient Khorasan.....	124

Afg'oniston o'zbek tili va adabiyotiga matbuotning ta'siri

Hasamuddin Hamdard¹

Abstrakt

Afg'onistonda demokratik davlat yuzaga kelishi bilan so'z va matbuot erkinligi konstitutsiyaga kiritildi. Shu bilan birga Afg'oniston o'zbek matbuoti 1978-yili "Yulduz" gazetasining vujudga kelishi bilan boshlandi. Yulduz gazetasidan boshqa Afg'oniston matbuotida bir qancha gazeta va jurnallar ham nashr etilgan. Jumladan: ilk gazetalar ("Yulduz", "Foryob" kundaligi, "Quyosh", "To'g'ri yo'l", "Yog'du", "Chovush", "Gurash" va "Gunash"...). 2000-yildan to 2020-yilga qadar "Ulus", "Belgi", "Taxoriston", "Ko'zgu", "Ko'rash", "Ishonch", "Maymana", "Navoiy", "Vatandoshlar", "Ezgu-tuyg'u", "Oydin", "Oydini Sarpul", "Oydini Andxuy", "Oydini Foryob", "Oydini Toliqon", "Oq yo'l", "Buloq", "Aybak yo'lli", "Anbar oyligi", "Chulpon haftaligi", "Aybak ko'zgusi" haftaligi, "Kengash" oyligi, "Qarash"oyligi gazetalari va ijtimoiy tarmoqlardan O'zturk darichasi va bulut veblogi boshqalardir. Maqolada shu kabi tadqiqotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Afg'oniston o'zbeklari, Afg'oniston o'zbek matbuoti, ilk mabuot, o'zbek gazetalari, Afg'oniston zamonaviy o'zbek adabiyoti.*

Kirish

Afg'oniston zamonaviy tarixida 1978-yil 7-aprelda bo'lgan siyosiy o'zgarishda demokratik partiya hokimiyatga erishdi, shu bilan birga, qator millatlar, jumladan, Afg'oniston o'zbek xalqining madaniyati tarixida birinchi bo'lib matbuotda so'z erkinligi e'lon qilindi. Bu voqeа va o'zgarishlar, o'zbek adabiyotining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Omillardan biri, o'zbek tilida matbuot va radingning shakllanishi ko'plab o'zbek shoир va yozuvchilarining she'r va yozuvlari alohida kitob shaklida chop etilishiga hamda adabiyot taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. 2001-yildan keyin Afg'onistonda siyosiy-ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar, yuzaga chiqib, yangi demokratik davlat yuzaga keldi. Shu bilan birga, kons- titutsiya 2003-yilning mart oyida tasdiqlandi. Uning 16-moddasida mammalakatda o'z hududlarida ko'pchilik so'zlashayotgan tillar uchin-

¹ Hasamuddin Hamdard – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-mail: hasamuddin.hamdard@yahoo.com

ORCID: 0000-0002-0914-6028

Iqtibos uchun: Hasamuddin Hamdard. 2024. "Afg'oniston o'zbek tili va adabiyotiga matbuotning ta'siri". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 77–86.

chi rasmiy til sifatida talqin etildi. Uchinchi rasmiy tillar amalda qanday qo'llanilishi qonun orqali belgilanadi deb qayd qilingan. Qonunning ushbu moddasida, jumladan, o'zbek va turkman tillari ham uchinchi rasmiy til sifatida kiritildi.

O'zbek tiliga rasmiy maqom berilgani, sirtdan qaralgan bo'lsa ham, bu so'zlar ancha jozibador va adolatli bo'lib ko'rindi, ammo amalda sezilarli hech qanday ish olib borilmagan. Davlat bu sohada rasmiy ish olib bormasa-da, o'zbek zamonaviy adabiyoti yangi bir oqim shaklida o'sib bordi. Buning sababi, o'zbek tilida jon kuydirib qalam tebratayotgan ijodkorlardir. Ularning adabiy ishlari uchun davlat tomonidan hech qanday mukofot va rag'bat ko'rsatil-madi, shunday bir og'ir vaziyatda ijod etib, moddiy qiyinchiliklar bilan o'z asarlarini nashrdan chiqardilar.

Bu davrning adabiyot mahsuli o'zbek qalamkashlarining himmatlari va ona tiliga bo'lgan aloqasiga bog'liqdir. Ushbu yillarda yuzdan ortiq kitob Afg'oniston turklari tomonidan chop etiladi va yuzlarcha ilmiy-tadqiqiy va adabiyot maqolalari nashriyot va gazetalarda chop etildi. Bu Afg'oniston zamonaviy adabiyotining boshlang'ich davri bo'lib, 20-asrga taqaladi. Bu tarixiy davrda o'zbek zamonaviy adabiyotida o'tmishdagi yillarning aksariyati (tanz, tazkira yozish, folklorshunoslik, turkiy qomusnoma va dostonlar yozish, haftalik va oyliklar nashr etish, madaniyat uyushmalarini qurish, she'r va yangi til va tasvirlarni kashf etish va nasriy yozuvlarda ham yangi me'yor va adabiy maktablardan foydalanish va boshqalar) ko'zga tashlanib, o'zbek zamonaviy adabiyotining kamolot bosqichiga yo'l olishiga asos bo'ladi [Oltoy 1994, 2].

Afg'onistonda 1919-yildan keyingi mustaqillik sharoiti adabiyot va san'atning taraqqiyotiga muayyan ta'sir etdi. Hatto, turli xil ijtimoiy to'sqinlar tufayli bu o'lkaga O'zbekiston va boshqa qo'shni mamlakatlardan kelib yashagan o'zbeklarning zamonaviy afg'on-o'zbek adabiyotining shakllanishi va rivojida muhim ahamiyatga kasb etgani ham kuzatiladi. Ikkinci jahon urushidan keyin, xususan, 1964-yili mamlakatda o'tkazilgan asosiy islohotlar Afg'oniston xalqlarining madaniy-ma'naviy hayotiga muayyan ijobiy o'zgarishlar kiritdi. Mahalliy millatlarning milliy shuurida jiddiy ijobiy o'zgarishlar yasadi. Lekin 20-asrning 50-yillarigacha bo'lgan davrda Afg'onistondagi ijodkor o'zbeklar ko'proq mumtoz adabiyot an'analariga sodiq ravishda Alisher Navoiy, Bobur va Mashrab ijodida yuksaklikka ko'tarilgan. G'azallar, ruboilyar, muxammas, masnaviy singari janrlar doirasidan tashqariga chiqmay ijod qilib kelganlari ham ma'lum. Ularning she'riyatiga xos xususiyatlarini

o'rganishda hisobga olinishi zarur bo'lgan omillar talaygina.

Aynan uzoq va boy tarixga ega bo'lgan mumtoz o'zbek she'riyatiga qattiq bog'lanib qolgan an'anaviy yo'naliish-dagi ijod namunalarining aksariyat qismi zamonaviy o'zbek adabiyotining keksa avlodlari Mahjur Michanxel, Qodiri Palangpush, Cho'x xalfa, Marviy, Tarxoniy, Abdurashid maxdum Chustiy, Qoriy Sharafuddin Sharaf, ustod Qurbat Komil Foryobi, Nafir Totor, Ulobiy, Xayri va boshqalarning ijodiga xos bo'lib, ularning adabiy va ilmiy asarlari xalq orasida keng tarqalgan va mashhur bo'lgan.

Bu avlod haqida so'z yurutilganda, ta'kidlash joizki, ularning bir qismi O'zbekistondan muhojir bo'lgan va mahalliy o'zbeklar qatori 20-asrning birinchi yarmidagi Afg'oniston o'zbek adabiyoti rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan shoir va adiblardir.

Shu o'rinda bir necha yirik shoir vatandoshlarni eslab o'tish joiz. Bular orasida, avvalo, vatandoshlarimizdan, yirik shoir Sharafuddin Sharafni eslash o'rinnlidir. Afg'oniston o'zbeklari orasida "Domla Bedil Toshkendiy" nomi bilan mashhur bo'lib, Toshkentda tug'ilib, so'ng Buxoro madrasasida tahsil oladi, va o'z vaqtida mashhur O'zbekiston ma'rifatparvar, adab va jamoa arboblari, Behbudiy va Munavvar qorilar bilan yaqin munosabatda bo'lgan. Sharafuddin Sharifning barcha g'azal, muxammas, ruboiy va boshqa she'rlari o'zbek mumtoz she'riyati an'analari bilan hamohangdir [Rosix 2003, 126].

Shoir Muqimi Andxuiy ham garchi Afg'onistonning Andxuy tumanida tavallud topgan bo'lsa-da, asosiy tahsilini Buxoroda, madrasada olgan. Bu shoir ham o'zbek mumtoz adabiyoti an'analalarini davom ettirgan holda dariy tilida ham she'rlar yozgan zullisonayn shoirdir. Toshkentda tug'ilib, Buxoroda tahsil olib, keyin 22 yoshida Afg'onistonning Andxuy shahrida kelib qolgan [Abdulloyev 1997, 234].

Ushbu jarayonlar Afg'oniston bilan chegaralanib qolmay, balki Afg'onistondan tashqaridan ham davom etdi. Ushbu millatning taniqli yozuvchi va shoirlari o'zbek va dariy tillarida turli sohalarda o'zlaridan sermahsul asarlar qoldirdilar. O'zbek yozuvchilari va shoirlari o'z asarlarini turli janr va shakllarda yozib gazetalar, jurnallar va turli ommaviy axborot vositalari orqali nashr etdilari. Biz Afg'oniston o'zbek adabiyotining bu bosqichida (muhojirlik adabiyotining izlarini kam bo'lsa ham topa olamiz. Bu ijodlar ko'proq she'r sohasini o'z ichiga oladi. Demak, yozuvchilarining badiiy, tadqiqiy, tanz, tarixiy folklor va bolalar uchun yaratilgan asarlari ham oz emas. Biroq she'riy to'plamlar ko'proq nashr etildi.

Adabiyot va madaniyatda faqatgina she'riy va nasriy asarlar nashr bo'lishiga qaramay, Afg'oniston matbuotida o'zbek tilida turli jurnal, gazeta va jaridalar bosildi. Undan tashqari radiolar orqali o'zbek tilida oz bo'lsa ham nashr etib keldilar.

Hozirgi kunda she'r va nasrda qalam tebratayotgan va ijodiy ishlar bilan shug'ullanayotgan afg'onistonlik qalamkashlar ustoz Muhammad amin Matin Andxuiy, ustoz Solih Muhammad Rosix, Shafiqa Yorqin, ustoz Nazar Muhammad xon, ustoz Muhammad Olim Labib, ustoz Muhammad Ashraf Azimi, Muhammad Halim Yorqin, Azizulloh Aral, Zikrulloh Ishonch, Nurulloh Oltoy, Toshqin Bahoiy, Rahim Ibrohim, Muhammad Olim Kuhkan, Muhammad Kozim Aminiy, Gul Ahmad Tonish, Solih Muhammad Hassos, Farishta Bigum, G'alomsaxi Vakilzodah, Aminulloh Noyil Xonkeldi va boshqalar o'n-lab yozuvchilarimiz so'nggi davr va sharoitning natijasidir. Keyingi paytlarda ushbu yozuvchilar tomonidan xilma-xil o'zbek adabiyo-tining ijod namunalari yaratildi. Lekin mazkur adabiyot namunalari hali oz bo'lsa ham dunyo bo'yicha o'zbek adabiyotida o'z o'rnini egallahsha harakat qilmoqda [Aminiy 2009, 10-11].

O'tgan yillarda Afg'oniston matbuotida eng mashhur gaza-ta "Yulduz" gazetasi edi. Afg'onistonda radio va televizion dastur-larida esa boshqa tillar qatorida o'zbek tiliga ham vaqt ajratildi. Afg'oniston matbuotida "Yulduz" gazetasidan keyin 2000-2020-yillar orasida o'zbek tilida gazetalar nashr etildi. Jumladan, Mozori Sharif shahrida Milliy islomiy junbish partiyasining gazetasi "Ni-doi islom", "Ravzanai umid" va "Junbish" va Muhammad Olim Labib mudirligida "Yog'du" va "To'g'ri yo'l" gazetalari, shuningdek, "O'lka", "Vatandoron" va "Payomi jumhuriyat" gazetalari, "Andxuy" jurnali "Mlliyathoye birodar" jurnalari [Yorqin 2022, 4-5].

"Foryob" va "Javzijon" gazetalarining o'tgan yillarda o'zbek tili va adabiyoti uchun faoliyatları maqtovga sazovor va tavsifga loyiqidir. O'zbek yozuvchilarining faoliyati faqatgina Afg'onistonga taqalib qolmay, balki Afg'onistondan tashqarida ham ko'zga ko'ri-narlidir. Jumladan, Milliy islomiy junbish nashri bo'lmish "Savg'ot" gazetasi Burhonuddin Nomiq boshchiligidagi, Mozori Sharifda Rahim Ibrohim boshchiligidagi va Pokistonda Muhammad Olim Kuh-kan boshchiligidagi "Chovush" jurnalni va shuningdek, "Qolin" jurnalni hamda Germaniyada "Paymon" jurnalni va "Jahish" gazetalarini e'tirof etish mumkin. Shuningdek bu muddatda turkiy xalqlarning tarixi, madaniyati va adabiyotiga tegishli kitoblar, she'riy to'plamlar va risolalar o'zbek yozuvchilari tomonidan turli o'zbek shevalarda nashr etilgan [Tuniq 2009, 121-125].

Zohirshoh davridan keyin Afg'oniston milliy radiosи va televideniyada ko'rsatilishi to'xtatilgan o'zbek ko'rsatuvlari yana efirga uzatila boshlandi. Biroz vaqt o'tgach, Afg'oniston fanlar akademiyasida o'zbek tili bo'limi ochilishi bilan madaniy taraqqiyot davom etdi. 1983-yilda Kobul universitetining san'at va fan fakulteti tarkibida o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi ochildi. Bu o'zgarishlardan so'ng Afg'oniston Milliy ta'lim vazirligiga qarashli Millatlar Bosh boshqarmasi tarkibida o'zbek va turkman bo'limlari faoliyat ko'rsata boshladi. Bu bo'limlarning mehnati va sa'y-harakatlari bilan darsliklar oltinchi sinfgacha bo'lgan ta'lim bosqichi uchun tayyorlandi. Bundan tashqari, Afg'oniston shimolidagi o'zbeklar yashaydigan hududlarda ham maktablar ochila boshladi. Bu ishlamalar yoshlarning bilim olishi, ko'plab yosh shoir va yozuvchilar yetishib chiqishiga zamin yaratdi.

1979-1990-yillar orasida Amir Alisher Navoiy madaniy uyushmasi, Afg'oniston fanlar akademiyasi, Afg'oniston qavmlar va qabilalari vazirligi va Afg'oniston yozuvchilari uyushmasi tomonidan va Abdulg'affor Bayoniy harakati bilan Navoiyning "Xamsa"si, Xondamirning "Makorimul-axloq" kitobi, Oyxon Bayoniy harakati bilan "Zendagoniye siyosiye Amir Alishe'r Navoiy", "O'zbek shoirlari" va "O'l kam bahori" kitoblari; Muhammad Yaqub Vohidiy Javzjoniy harakati bilan Navoiyning "Muhokamat ul-lug'at" va Mabbub ul-qulub" asarlari nashr etildi. Shuningdek, Shafiqa Yorqin va Halim Yorqin tomonidan ushbu yillar mobaynida va undan keyingi yillarda nashr bo'lgan "Turkiy otlar so'zligi", "Simoye Alisher Navoiy", "Boburiy xat", "Zahiruddin Muhammad Bobur devoni", "Nodira va she'rroiy u", "Mavlono Jalolluddin Muhammad Balxiy ruboilylari", "Yangi rais ham keldi", "Xat va alifboye turkiy-o'zbeki", "Barghoi az torixi o'zbekon Afg'oniston", "Bozihoye omiyonai o'zbekoni Javzijon", "O'zbek lug'atnomasi", "Boburga armug'on", "Bobur manguligi", "Nay tilmoji kitoblari", Muhammad Azim Azimi Sarpuliyning "She'rilar devoni", "Nisobusabyon", "Qavoyidulquron", "Bo korvoni bedil" kitoblari, Abdulhakim Shar'iy Javzijoniyning "Yangi zamон taronalari" va "Yashasin partiya", "Aburayhon Albiruniy" va "Omu daryo" she'rilar to'plami, Muhammad Amin Matin Andxuiyning "Ko'ngil so'zi", "Bog'i lolapush", "Dudmoni sodot", "Gulshani quds", "Marzi xurshid", "Kosai chubin", "Sham'iy bar Mazori xomushon, "Ononyi ki dar Andxuy va joygoh tarixi on" va "Chehrahye barozanda Andxuy", "Mururiy bar sangnabashtaho" kitoblari va yozuvchi Abdulloh Kokarning "Andishmandi pishtoz", "Teymuriyonni Hirot", "Aburayhon Albiruniy", "Shahanshoi suxan-

var", "Amiri donishmand", "Sharh majmu'ai gul", "Shahri salotin", "Shaxsiyati madaniy Zahiruddin Muhammad Bobur", "Mahd teymuriyonи Hirot", Ashraf Azimiyning "Ulug' zafar" va "Yosh to'lqini" she'riy to'plami, Muhammad Olim Labibning "So'z injulari", "Torixi muqimxoniy", "Fidirolizim", "Tuyg'ularim qayg'ularim", "Mavlono Lutfiy Hiraviyning hayoti va adabiy merosi", "Pujuhishi dar naqdi adabiy", Muhammad Karim Nazihiy Jilvahning "Jilvahhoi az ashori jilvah", Abdulsalom Osimning "Yangi ochilgan gullar", "Chagana gullar" asarlari, Burhonuddin Nomiqning "Torixi adabiyoti turkiy-o'zbekiy" tarjima asarlari, Muhammad Is'hoq Anvarning "Charog'i zendagi" she'riy to'plami, Said Yaqub Tolining "Sangar sesi" she'riy to'plami, Fotima Rasuliyning "Tanz to'plami", Muhammad Kozim Aminyning harakati bilan ijod bo'lgan "Vatanni eslab", "Ranginkamon", "Tazkirai shu'aro耶 Javzijonon", Homid For-yobiy kitoblari, va Mirzo Ulug' bek madaniy uyushmasi tomonidan nashr etilgan "Boborahim Mashrab", "Xojanazar Huvaydo", Kubro Keyvonning "Oltin toj" she'riy to'plami va "Dar intizor sahar" she'riy va nasriy asarlari Javhariyning "Devoni ibni yamin" asari, Abdurrahmon Mu'allimning "Bibiyoni pokdoman" asari, Abdulhay Habibiyning "Amir Alisher Navoiy" nomli pashtu tilida yozgan tadqiqiy asari, Asadulloh Valvolijiyning "Mehr va mu-sahhaf", "Sarzamini oboiyam turon" kitoblari, Rahim Ibrohimning "Chumchuqcha" hikoyalari va Nurulloh Oltoyning "O'zbek lug'atnomasi", Abdurrahim Ma'sumiyning "Eski tariximiz" va "Kal o'g'lon" asarlari, Muhammad Umar Alim Bayotning "Javzijon dar sad soli guzashta" asari, Toshqin Bahoiyning "Pupi qush" va "Suloq" kitoblari, Muhammad Rafiq Qodiriyning "Shir va shakar" she'riy to'plami, Gul Ahmad Tonishning "Yurak nag'masi" she'riy to'plami, Intizori Javzijoniyning "Gulshan ichrah" she'riy to'plami, Faizulloh Aymoqning "Xalq durdonalari", Solih Muhammad Hasosning "Sabzi man" va "Zarbulmasallar" asarlari va Orif Usmon bilan Abdulhamid Otifning "Xalq tafakkuri" kitobi, Abulasfor Balxiyning "Dudmoni turk-o'zbek" kitobi va Hidoyatulloh Hidoyat harakati bilan nashr bo'lgan "Huvaydo devoni", Haqiriyning "Ko'ngil navosi" va "Ezgu niyat" nomli she'riy to'plamlari va "Armag'oni junbish", "Shajarayi tarokima", "Devoni xoni xonon Bayram xon", "Torixchai muxtasari fir'avniyon" va shunga o'xshash o'ndan ortiq she'riy to'plamlar va tadqiqiy-nasriy asarlar o'tgan o'ttiz yilda Afg'onistonda nashr etilgan [Aminiy 2009, 4].

Ozodlik operatsiyasidan so'ng Afg'onistonda Tolibon rejimi tugatilib, yangi davr boshlandi. Bu yangi davrda 2001-yil 27-noyabrda Bonnda bo'lib o'tgan yig'ilishda tomonlarning kelishuvii bilan Hamid Karzay Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash va

mamlakatni boshqarish vazifasiga tayinlangan edi. Vaqtinchalik hukumat tomonidan 2003-yilda tayyorlangan konstitutsiyaning o'n oltinchi moddasida mamlakatda so'zlashadigan tillar o'z mintaqalarida rasmiy tillar sifatida belgilangan. Bu tillar ichida o'zbek tili o'z mintaqasida uchinchi davlat tili sifatida qabul qilingan. Afg'oniston o'zbek hunarmandlari bu erkinlikdan yana bahramand bo'lib, jonlana boshladi. Qisqa vaqt ichida ijtimoiy, siyosiy, adolatsizlik va, ayniqsa, qullikka mahkum etilgan insonlar ruhi haqida o'nlab asarlар yaratildi.

Milliy ma'naviyatni shakllantirishga kirishgan iste'dodli ijodkorlar o'z g'oya, mulohazalarini jamiyatga yetkaza boshlaydi. Bu davr adabiyotida Janubiy Turkistonning bitmas-tuganmas musibatlari tushunish va tushuntirish, xalqni birdamlik va erkinlikka yetaklash, mintaqaviy muhokama qilinadigan mavzular xalqning jaholatdan turli xurofotlardan yiroqlashishi, zulmdan qutulishi va bu yo'lida kurash olib borishidir. Bu davrda yozilgan asarlarda yana hayot sirlari ochila boshladi. Adabiyotda kishilarning ichki dunyosiga qiziqish, ularning dardiga sherik bo'lish tuyg'usi kuchaydi. Shu boisdan ham asarlarda psixologik tahlillar kuchayib, asarlar dramatik xususiyat kasb etgan. Adabiyotda yana realistik tamoyillar kun tartibiga olib chiqildi, shakl va uslub rang-barangligi uchun imkoniyatlar yuzaga keldi.

Boshqaruvdagi o'zgarishlar va jamoatchilik huquqlari doirasida, ham ijtimoiy, ham siyosiy hayotdagi o'zgarishlarning yutuqlaridan biri gazeta va jurnallar ekanligini ta'kidlash kerak. 2003-yildan boshlab Kobul shahrida bir qancha xususiy, davlatga tegishli gazeta va jurnallar fors va o'zbek tillarida chiqa boshladi. Shuningdek, Afg'oniston "Qardosh xalqlar vazirligi" tomonidan nashr etilayotgan "Vatandaron" gazetasi, "Mamlakat" va "Payomi Cumhuriyet" nomli gazetalar, bir qancha ishbilarmonlar va deputatlar tashabbusi bilan siyosiy, adabiy va diniy mavzularni yorituvchi maqolalar va tadqiqotlarni nashr etdilar.

Bu davrlarda afg'on-o'zbek adabiyoti shaklidagi o'zgarishlar nasriy janrlarda ham ko'rindi. Afg'onistondagi bu o'zgarishlar uzoq yillar bosim ostida bo'lган va so'nggi o'ttiz yilda katta taraqqiyot ko'rsatgan o'zbek adabiyoti nafaqat Afg'oniston chegaralari ichida qolib, balki Afg'onistondan tashqarida ham davom etib, ko'plab o'zbek ziyyolilari tarbiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Afg'oniston o'zbek ijodkorlari fors tilida, xususan, o'zbek tilida asarlar yozishni ham e'tibordan chetda qoldirmadilar. 2001-yildan beri ularning yuzlab adabiy, tarixiy kitoblari, ilmiy maqolalari alohida nashr etilgan.

Bundan tashqari, Afg'onistonlik o'zbek rassomlarining asarlari gazeta, jurnal yoki turli internet sahifalarida chop etilgan va e'lon qilinishda davom etmoqda [Kuhkan, 2020:10].

Bundan tashqari, o'tgan o'ttiz yil mobaynida bu kitoblar va asarlardan boshqa turli jurnal va gazetalar hamda risolalar nashr bo'ldi. Kobulda "Amir Alisher Navoiy" madaniy uyushmasi, Mazori Sharif shahrida "Mirzo Ulug'bek" madaniy uyushmasi, shuningdek, Kobul shahrida "Oydin" va "Turon" madaniy anjumanlari va boshqa madaniy va adabiy ishlar bo'lib o'tdi. 1981-yil Kobul universitetida til va adabiyot fakultetida "O'zbek tili" kafedrasи ochildi. Balx, Foryob, Javzijon va Toxor viloyatlarida ham "O'zbek tili" kafedralari ochilib mingdan ortiq talabalarni tarbiyalab jamiyatga taqdim etgan [Vakilzoda 2022, 2-3].

Aytish joizki, o'tgan yigirma yil davomida o'zbeklarning tili va bu tildagi ommaviy axborot vositalari, televizion, radio, jurnal va gazeta hamda ijtimoiy tarmoqlarining o'zbek tili va adabiyotiga ta'siri to'g'risida so'z yuritdik. O'zbek matbuotining, o'tgan yigirma yilda o'zbek tili va adabiyotiga ta'siri eng kuchli va yuqori darajada bo'lgan. O'zbek matbuoti Afg'oniston o'zbek tili va adabiyoti rivoji va yuksalishi, qolaversa, adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishi uchun ulkan madaniy hodisa bo'lib xizmat qilgan. Matbuot vujudga kelishi bilan birga maorif, oliy o'quv yurtlari, ilmiy va tadqiqot ishlariga tegishli muassasalar hamda radio va televizion idoralarida ham o'zbek tiliga bog'liq tarmoqlar va bo'limlarning ochilishi quvonarli edi. Shu bilan birga, turli she'riy to'plamlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, mumtoz adabiyotimiz namunalari va ko'p jildli maktab o'quv kitoblarining nashr etilishi, turli ilmiy va adabiy seminarlar, konferensiylar va mushoiralar o'tkazilishi, tilimiz rivojlanishi uchun turtki bo'ldi [Toshqin 2022, 1-2].

Aytish lozimki, bu jarayonda o'nlaracha yetuk shoir va yozuvchilar yetishib chiqdi. Butun ijodlari matbuotda nashr etilib, o'zları matbuotning kengash va yig'inlarida, buyuk shaxsiyatlар orqali, o'z tili va adabiyotining yuksalishi va boyishiga xizmat qilganlari uchun yuksak darajada e'tirof etilib mukofotlangan. Qolaversa, bir qancha yoshlarni o'z ona tilini yaxshi o'rganib, bu til va adabiyotning rivoji va ravnaqi uchun qo'shni o'lkalarning yuksak o'quv bilim yurtlariga yuborildi [Sirdosh 2018, 23-25].

Xulosa

O'zbek matbuoti o'zbek tili va adabiyoti rivoji va yuksalishi, qolaversa, adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishi uchun

ulkan madaniy hodisa bo'lgan. Matbuot yuzaga kelishi bilan birga ta'lim, oliy o'quv yurtlari, ilmiy va tadqiqiy ishlarga tegishli institutlar hamda radio va televizion idoralarda ham o'zbek tiliga oid tarmoqlar va bo'limlarning ochilishi quvonarli bo'lgan. Turli she'riy to'plamlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, mumtoz adabiyotimiz namunalari va maktab o'quv kitoblarining nashr etilishi tilimiz rivojlanishi uchun turki bo'ldi. Shuningdek, ushbu muddat orasida turkiy xalqlarning tarixi, madaniyati va adabiyotiga tegishli kitoblar, she'riy to'plamlar va risolalar o'zbek qalamkashlari tomonidan o'zbek tiliga turli shevalarda nashr etilgan.

Shuni aytish lozimki, hozirgi vaziyat va siyosiy o'zgarishlardan keyin, matbuotimizni boshqa yo'llar orqali o'tgan qirqellik yil mobaynida qo'lga kiritgan yutuqlarimizni saqlash va davom ettirish kerak. Afsuski, hozir bu masalalar e'tibordan chetda qolib kelmoqda.

Adabiyotlar

- Aminiy Muhammad Kozim, *Afg'oniston Turkiy Matbuotining Qisqacha Tarixi*. 2005. Bayoniy Madaniy va ijtimoiy veblogi: (www.bayanifoundation.com).
- Oltoy, Nuro'lloh, *bu millatning egasi bormi?* 1994. Bulut veblogi, (www.bayanifoundation.com).
- Sirdosh, Abdulg'afur. 2018. *O'zbek tili badiiy nasrining kro'nulujisi*, Javzijon Universiteti, O'zbek tili va adabiyoti bo'limi, s. 23-25.
- Toshqin, ustoz Abdulloh. 2022. *Yulduz Jaridasining Tarixchasi*, Bulut veblogi: (<http://bayanifoundation.blogfa.com/post/409>)
